

**FRANSUZ TILIDAGI YOSHLIK /JEUNESSE
TUSHUNCHASINING TURLI NUTQIY DISKURSLARDA
IFODALANISHI.**

Akhrorova Ruzixon Usmanovna

f.f.f.d., (PhD), dotsent

Jo‘rayeva Moxinur Najmuddin qizi

22.120 gr. Talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada *jeunesse/yoshlik* tushunchasining turli nutqiy diskurslarda fransuz tili misolida qisqacha yoritilgan.

Annotation :In this article, the concept of jeunesse/youth is briefly covered in different discourses using the example of the French language.

Аннотация: В этой статье понятие молодости/молодости кратко рассматривается в различных дискурсах на примере французского языка.

Kalit so‘zlar:jeunesse, jeune, juvenile, adonis, bejaune, catherinette,damoiseau,demoiselle, ademoiselle,ephebe,fille,garcon,gars,gonzesse,greluche, jeune,jeunesse, jeune, turc, jeunet, jeunette, jeunot, jeunotte, jouvenceau, jouvencelle, mignon, minet, minette, mome, nana, nenette, nymphette, pucelle, souris, tendron.

Keywords:jeunesse, jeune, juvenile, adonis, bejaune, catherinette,damoiseau,demoiselle, ademoiselle,ephebe,fille,garcon,gars,gonzesse,greluche, jeune,jeunesse, jeune, turc, jeunet, jeunette, jeunot, jeunotte, jouvenceau, jouvencelle, mignon, minet, minette, mome, nana, nenette, nymphette, pucelle, souris, tendron.

Ключевые слова:jeunesse, jeune, juvenile, adonis, bejaune, catherinette,damoiseau,demoiselle, ademoiselle,ephebe,fille,garcon,gars,gonzesse,greluche, jeune,jeunesse, jeune, turc, jeunet, jeunette, jeunot, jeunotte, jouvenceau, jouvencelle, mignon, minet, minette, mome, nana, nenette, nymphette, pucelle, souris, tendron.

Yoshlik / jeunesse tushunchasini frantsuz tilida 40 ta leksema ifodalaydi. Ularning orasida har xil so‘z turkumlari ya’ni otlar, sifatlar, fe’llar, ravishlar bor.

Mana shu semantik guruhning ba'zi leksemalari bir o'zakli bo'lib, ulardan asosiysi jeune, juvenile va boshqa so'zlar bo'lgan so'zni hosil qiluvchi uyalarga mansub. Jeunesse tushunchasi frantsuz tilida har xil toifali grammatik mansublikdagi leksemalarda, ya'ni otlar, sifatlar, fe'llar va ravishlarda aks ettirilgan. Bular orasida ta'riflanadigan "yosh davr"ining turli xil nomlanishlarini erta yosh davri nomlarini ushbu tushuncha bilan bog'liq turli xil hodisalar va sifatlarning belgilanishini qamrab olgan otlar eng yirik guruhni tashkil etadi.

"Yosh davr"ining nomlari: Jeunesse

Yosh muchaldagi shaxslarning nomlari: Adonis; bejaune; catherinette; damoiseau; demoiselle; ademoiselle; ephebe; fille; garcon; gars; gonzesse; greluche; jeune; jeunesse; jeune, turc, jeunet, jeurette, jeunot, jeunotte; Jouvenceau; jouvencelle; mignon; minet, minette; mome; nana; nenette; nymphette;pucelle; souris;tendron. [3:2552].

Yoshlik/jeunesse tushunchasi bilan bog'liq hodisalar va belgi-sifatlarning nomlari: Jouvence; jeunisme; rajeunissement; juvenilite; verdeur;

"Yoshlik"ning fransuz tilidagi leksik ifodalanishilari orasida sifatlar, fe'llar, ravishlar guruhlari nisbatan kam sonliroqdir. Aytilgan so'z turkumlarining yirik ulushini bir o'zakli so'zlar tashkil etadi. Jeunesse semali sifatlar, fe'llar va ravishlar quyidagicha:

Sifatlar: Benjamin, jeune, jeunet, jeunot, jeuniste, juvenile, tender, vert.

Fe'llar: (se) rajeunir

Ravishlar: Jeunement.

Fransuz tilida yoshlik tushunchasining leksik tahlili mazkur tushunchaning leksik ifodalanishlari o'zbek tilida bo'lganidan ko'ra kamroq ekanligini ko'rsatadi[1:188]. Bunda frantsuz tilida yoshlikning leksik ifodalanishi uchun leksik zichlik xosdir. Ko'p leksemalar jeune yoki juventille so'zlarining hosilalaridir.Jeunesse tushunchasini ifodalovchi barcha leksemalar erta yosh davri semasi bilan birlashtirilgan. Bu sema ham eksplitsit , masalan jeune, jeunesse, rajeunir, ham implitsit minet, minette, mignon, tendron, beraune, blanc-bec bo'lishi mumkin. [4:23, 88].Leksemalar qatorida, "yosh davr"i

leksemasi bilan birga, genderli sema yetakchi bo'ladi, masalan, *fille*, *gars*, *garçon*, *gonzesse*. Implitsitli tarzda erta "yosh davr"i semasi yoshlik bilan assotsiativ bog'langan turli xil belgilar bilan asoslangan leksemalarda izohlanadi. Ert a "yosh davr"i istarasi issiqlik, nafosat, noziklik, jozibadorlik, tozalik, hayotiy kuch, g'ayrat kabi belgilar bilan bo'lgan aloqa asosida anglanadi.

Une éternelle jeunesse. La jeunesse de son sourire. Jeunesse de corps, de visage, de Coeur, d'esprit. Fraîcheure, grâce juvenile. Air, sourire juvenile.

"Tout était juvenile sur ces visages: la roseur de la joue[!]l'oeil frais" (Martin du Gard).

Rajeunir une installation, un équipement (modernizer, renouveler).

Fransuz tilida ikki xil bir-biriga qarama-qarshi ma'nolarga (ya'ni 1. Yoshlarni kamsitish va yoshlik bilan bog'liq qadriyatlarg (chiroy, umumiy xulq. va b. sifatlarga), (shuningdek, qariyalar tahqirlanishini ifodalovchi agisme atamasi mavjud) ega bo'lgan jeunisme atamasi mavjud ekanligi qiziqarli [3:23,88]. Bir so'z miqyosida bir-biriga zid ma'nolarning shunday tarzda mujassamlanishi frantsuz madaniyatining ma'lum realiyalarini, fransuz tilidagi yoshlik tushunchasiga xos ikkiyoqlama valentlikni aks ettirganligidadir. Yoshlik tushunchasining bu ikkiyoqlamaligi bir tomondan, unda yoshlik davri uchun xos bo'lgan ijobiy sifatlar (chiroy, serg'ayratlik va b.) bilan zavqlanish, ikkinchi tomondan esa odatda yoshlarga xos bo'lgan salbiy sifatlar to'g'risidagi turg'un tasavvurning (masalan, tajribasizlik) mujassamlanganligidadir[2:168]

Adabiyotlarro'yxati

1. Akhrorova R.U. "Yosh" tushunchasilingvistik talqini. Scientific Journal Impact Factor (SJIF) : 5.938. №2. 2023.03.16. –B.187-190.
2. Akhrorova R.U. Lexical-semantic expression of early youth/jeunesse in french. International scientific and practical in "Modern philological paradigms: interaction of traditions and innovations II". №41. 2022.04.05. –B.166-168.

3. Le Nouveau Petit Robert. Dictionnaire alphabétique et analogique de la langue française // texte remanié et amplifié sous la direction de Josette Rey-Debove et Alain Rey. – Paris: Dictionnaires Le Robert, 1997. – 2552 p. (PR).
4. Version électronique du Nouveau Petit Robert. Dictionnaire analogique et alphabétique de la langue française. - "Dictionnaires Le Robert", 1997. C. 23, 88.